



## INGLIZ TILINI O'RGANISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR.

**Mansurova Mohinur San'atovna**

*Samarqand Davlat Chet tillar institute Ingliz II fakulteti Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi  
2-kurs 2230-guruhi talabasi*

**Annotatsiya:** Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda ingliz tilining o'rni katta. Chunki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ingliz tilida muloqot qilishadi va dunyodagi ko'plab olimlar o'z ilmiy ishlarini ingliz tilida olib borishadi. Hozirgi paytda ko'plab yoshlar o'z diqqat etiborlarini ingliz tilini chuqur o'rganishga qaratishgan, ingliz tili yoshlarga ko'plab yopiq eshiklarni kaliti desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo ingliz tilini o'rganish jarayonida yoshlar ko'plab xatoliklarga duch kelishadi. Ushbu maqoladi siz, til o'rganuvchilarining til o'rganish jarayonida duch keladigan xatoliklari bilan tanishishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** bir tomonlama maqsad, gapirishdan qo'rqish, noto'g'ri tanlangan materiallar, tez o'rganish jarayonidagi xatolikar.

### KIRISH.

Hozirgi kunda har qanday kasbni egallash uchun avallo til o'ganish talab qilinmoqda. Ingliz tilini o'rganish bilish esa ko'plab kasblarnig kaliti desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ko'plab xorijiy mutaxassislarining maruzalari, asarlari ingliz tilida yozilgan. Hozirgi kunda ko'plab yoshlar o'z e'tiborini til o'rganishga qaratgan, ularidan ko'pchiligi ingliz tilini tashkil qiladi. Afsuski ko'plab til o'rganuvchilar birinchi qadamdayoq xatoga yo'l qo'yadilar va keyinchalik til o'rganish davrida bir qator qiyinchiliklarga duch keldailar.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko'plab til o'rganuvchilarining qiladigan xatolari, ular maqsadni noto'g'ri qo'yadilar ya'ni ular ingliz tilini faqat kirish imtihonlarindan o'tish uchungina o'rganishadi ularning xayoliida ingliz tili mening ona tilim emasku uni uncha chuqur o'rganishim shart emas degan xayol yuradi, bu esa ularga juda ko'p qiyinchiliklar olib keladi. Chunki bu fikr tilni yuzaki o'rganisjga olib keladi va bu ularning ingliz tilini o'rganishdagi ishtiyoqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oxir oqibat ular o'zлari xohlagan natijaga erisha olishmaydi. Avvalo inson biror tilni organizhga kirishdimi o'sha tilni har bir detallarigacha chuqur o'rganishi shart shundagina u o'sha tilda ravon muloqot qila oladi va hech qanday qiyinchiliklarsiz o'qishga ham kira oladi va kelajakda shu til bo'yicha mutaxassi darjasiga ham erishadi, buning uchun to'g'ri maqsad qo'yish kifoya. Til o'rganuvchilarining yo'l qo'yadigan xatoliklaridan biri ular ingliz tilida



so'zlashishdan qo'rqishadi ya'ni gapishtish davomida xatoliklarga yo'l qo'yishdan uyalishadi bu qo'rquv uyalish gapishtish davomida ularga halaqt beradi va ular erkin muloqot qila olishmaydi. Mening fikrimcha o'uchi gapishtish davomida o'z xatoliklarini tushunadi va bu xatoliklarni gapishtish davomida to'g'irlab boradi. Shu bois u gapishtish davomida qo'rmasdan gapirsa va xatolarini tuzatsa ingliz tilida ravon gaplasha oladi

Ingliz tilini o'rganuvchilarga bog'liq muammoli vaziyatlardan yana biri bu xorijiy tilarni o'rganishga mo'ljallangan o'quv dasturlarning haddan ziyod ko'pligi va yoshlarning odatda o'qitish dasturlarini o'ziga mosini tanlay olmasligi va o'qitish dasturlariga ko'nika olmaslidigadir. Bazida o'quvchi yoshlar o'zlarining o'rganish uslublarini topa ololmaydilar va ular turli xil usullar orqali qiynalib ingliz tilini o'rganishga kirishadilar yoki ngliz tilini o'rgatishga mo'ljallangan materiallarning ko'pligidan qaysi birini tanlashni bilmaydilar va turli xil materiallardan har xil usullarni o'rganib chalkash ahvolga kelib qoladilar natijada tilni to'liq puxta o'rgana ololmaydilar.

Hozirgi kunda ko'plab yoshlar ingliz tilini tezda qiyinchiliklarsiz o'rganishni xohlaydilar va ular gramatikani o'rganmasdan birdan xalqaro sertifikatning yo'naliishlari bo'yicha ish boshlaydilar ya'ni IELTS ning skillari bo'yicha tayloranadilar bu esa ularga yaxshi natija olib kelmaydi. chunki to'liq tushunilmagan gramatika bilan yaxsgi natijaga erishish dargumondir.

Xulosa qilib aytgandainson biror bir tilni o'rganish jarayonida o'rganilayotgan tiliga masuliyat bilan qarab ,muntazam o'z ustida ishlab borishi lozim. Iloji boricha til o'rganish jarayonida xatoliklarga yo'l qo'ymasdan bor diqqat etibori bilan o'sha tilni o'rganishi lozim.

#### REFERENCES:

1. Z.J.Bozorova."Ingliz tilini o'rganishda keng tarqalgan xatolar".Maqola
2. T.Robins "Maqsadga qanday erishiladi".